

## O‘ZBEK TILI IZOHLI LUG‘ATIDA “BOSH” KOMPONENTLI IBORALARNING GRAMMATIK TAVSIFI

*U.Rashidova, SamDU dotsenti*

*O.Mamarajabova, SamDU magistranti*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada “O‘zbek tili izohli lug‘ati’dagi “bosh” komponentli iboralarning grammatik tavsifi va ularning lug‘atda grammatik jihatdan qay tarzda berilishi haqida ayrim fikr va mulohazalar berilgan. Shuningdek, “bosh” komponentli iboralarning grammatik tarkibi haqida ham qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** *“bosh” komponentli ibora, iboralar tarkibi, birikmali iboralar, gap shaklidagi iboralar.*

Tilshunoslikda frazeologiya terminini qo‘llash XVI asrga to‘g‘ri keladi. Birinchi bo‘lib bu termini dunyo filologiyasida ingliz adabiyotshunosi Neandr qo‘llagan. Bundan so‘ng asta-sekinlik bilan tilshunoslikda frazeologik iboralarni o‘rganish boshlandi. Rus tilshunosligida frazeologik iboralarni o‘rganish XIX asrdan boshlangan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida esa XX asrning 50-yillaridan o‘rganila boshlangan.

Frazeologiyaning alohida yo‘nalish sifatida shakllanishida mashhur rus tilshunosi V.V.Vinogradovning xizmatlari alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, A.Peshkovskiy, B.Larin, N.Shanskiy, A.Kunin, A.I.Molotkov kabi olimlar ham ish olib bordi. Turkiyshunoslar F.R.Ahmedjanova, R.M.Tayeva, G.A.Bayramova, S.Navro‘zboyeva va S.I.Muratov kabilar tomonidan frazeologizmlar haqida ma‘lumot berilgan va tahlil qilingan.

O‘zbek tilshunosligida frazeologiyaning o‘rganilishida Sh.Rahmatullayev, Y.D.Pinxasov, Sh.Shorahmedov, Sh.Maqsudov va boshqa tilshunos olimlar beqiyos o‘rin tutadi. Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik izohli lug‘ati” ham o‘zbek tilidagi frazeologizmlarni o‘rganishimiz uchun katta manba

hisoblanadi. Bu lug‘atda o‘zbek tilida mavjud bo‘lgan mingdan ortiq iboralar keltirib, ularning semanti, grammatik izohlari ham berilib o‘tilgan. O‘zbek frazeologiyasining bundan keyingi rivojida B.Yo‘ldoshev hamda A.Mamatovlarning ham xizmatlari katta bo‘ldi. B.Yo‘ldoshev o‘z faoliyati davomida iboralarning konnotativ ma‘nolarini, badiiy tasvir vositasi sifatida imkoniyatini yoritib berdi.

Frazeologiyada inson tana a‘zolari bilan bog‘liq bir qancha somatik iboralar mavjud. Somatik iboralarning ilk tadqiqotchilaridan biri F.Vakk hisoblanib, bunday iboralarda har bir xalqning ko‘p asrlik tajribasi, turmush tarzi, ma‘naviyati aks etgan bo‘ladi. Tilshunos olim X.Hamidov ham somatik iboralar haqida shunday fikr bildirgan: “Inson hayoti bilan bog‘liq frazeologizmlarni shakllantirgan asoslardan birinchisi insonning tana a‘zolari nomlari (somatizmlar)dir. Bunday iboralar somatizmlar vositasida yuzaga kelgan bo‘lib, turg‘unlashgan holda insonning idroki, tafakkuri, e‘tiqodi, his-tuyg‘ulari, jamiyat bilan muomala munosabati, xulq-atvori, tashqi ko‘rinishini ifodalaydi. Ular ma‘no jihatdan emas, balki, tuzilishi, obrazlilik bilan ham bir-biriga mos va yogona ichki shakl asosida yuzaga kelgan”<sup>1</sup>.

Frazeologizmlar insonga har doim ko‘rinib turadigan tashqi a‘zolarining nomlari natijasida yuzaga keladi. Bosh esa odamning muhim tana a‘zolaridan biri bo‘lib, hayotning ramzi hisoblanadi. Bosh haqida frazeologizmlar esa insonning aqliy qobiliyatining yaxshi yoki yomonligiga baho beradi.

Bosh so‘zi umumturkiy so‘z bo‘lib, unga “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da (O‘TIL) quyidagicha ta‘rif berilgan:<sup>2</sup> “Tananing bo‘yindan yuqori, oldingi qismi, kalla”. Shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da “bosh” so‘zi bilan bog‘liq bir nechta somatik iboralar keltirilgan: *boshga tushmoq, boshida bor, bosh og‘ritmoq, boshiga yog‘ilmoq, boshdan kechirmoq, boshiga kelmoq, bir yostiqa bosh qo‘ymoq, bir yoqadan bosh chiqarmoq, biror ishning boshini ushlamoq, boshga qo‘ymoq, boshga ko‘tarmoq, boshga qo‘ndirmoq, boshi bog‘liq, boshi buzuq, boshiga yetmoq, boshiga suv quymoq, boshiga urmoq, boshiga chiqib*

<sup>1</sup> Hamidov X. Turk frazeologiyasi masalalari. –Toshkent: Bayoz,2019.

<sup>2</sup>O‘zbek tili izohli lug‘ati,-Toshkent:O‘zbekiston nashriyoti,2021.

*olmoq, boshiga o'tqizib qo'ymoq, boshida yong'oq chaqmoq, boshida kaltak sinmoq, boshidan zar quymoq, boshidan qolmoq, boshi yostiqa tegmoq, boshi ketmoq, boshi ko'kka yetmoq, boshi toshdan bo'lmoq, boshini aylantirmoq, boshini bog'lamoq, boshini bukmoq, boshini yemoq, boshiga yetmoq, boshini ikkita qilmoq, boshini silamoq, boshini tiqmoq, boshini xam qilmoq, boshini qovushtirmoq, boshi ochiq, boshi chiqmaslik, boshi qorong'u, bosh qotirmoq, bosh ko'tarib yurmoq, bosh ko'tarmoq, bosh olib ketmoq, boshi oqqan tomonga ketmoq, bosh egmoq, bosh qashimoq, bosh qo'shmoq, bosh urmoq* kabi iboralar shular jumlasidandir.

“O‘zbek tili izohli lug‘ati”da qatnashgan “bosh” komponentli iboralarning ikki yoki undan ortiq leksemalardan iborat bo‘ladi. Bunday iboralarning ba’zilarida grammatik o‘zgarishlar ro‘y beradi. Masalan, *boshiga chiqib olmoq, boshi toshdan bo'lmoq, boshi ko'kka yetmoq, boshini aylantirmoq, boshida kaltak sinmoq* kabi iboralarni nutqda qo‘llayotganda grammatik o‘zgarish ro‘y berishi mumkin: *boshingga chiqib oldi, boshing toshdan bo'lsin, boshimiz ko'kka yetdi, boshingni aylantirdi, boshimizda kaltak sindi* kabi.

“Bosh” komponentli iboralarda hozirgi o‘zbek tilidagi sintaktik bog‘lanishlardan asosan boshqaruv hamda bitishuv munosabatlari ko‘proq uchraydi. Masalan, *boshi bog'liq, boshi buzuq, boshi ochiq* iboralari bitishuv usulida bog‘langan bo‘lsa, *boshiga tushmoq, boshida bor, boshiga yog'ilmoq, boshga qo'ymoq, boshga ko'tarmoq, boshga yetmoq, boshini tiqmoq, boshini aylantirmoq, boshini yemoq* kabi iboralar boshqaruv munosabatida bog‘langan hisoblanadi.

“Bosh” komponentli iboralarning “O‘zbek tili izohli lug‘ati” (O‘ITL) da tuzilishi jihatidan quyidagi iboralar uchraydi:

1) So‘z birikmasi shaklidagi iboralar: *boshga tushmoq, boshida bor, boshiga yog'ilmoq, boshdan kechirmoq, boshga qo'ymoq, boshga ko'tarmoq, boshga qo'ndirmoq, boshiga yetmoq, boshiga urmoq, boshiga chiqib olmoq, boshidan zar quymoq, boshini aylantirmoq, boshini bukmoq, boshini silamoq, boshini ikkita qilmoq, boshini tiqmoq, boshini xam qilmoq,*

2) Sodda gap shaklidagi iboralar: boshi toshga tegmoq, boshi toshdan bo'lmoq, boshi bog'liq, boshi ochiq, boshi buzuq, boshi qorong'u kabilar.

O'zbek tili izohli lug'atidagi "bosh" komponentli iboralarning ko'p qismi so'z birikmasi qurilishiga teng. Bunday iboralarning bir qismi esa sintaktik qurilish jihatidan gapga teng bo'lib, bunday iboralar tarkibida ega mavjud bo'ladi: *boshi bog'liq, boshi toshdan bo'lmoq, boshi ochiq* kabi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada "O'zbek tili izohli lug'ati"da mavjud (O'ITL) "bosh" komponentli somatik iboralarning tarkibi, ularning sintaktik qurilishi aniqlandi. Jumladan, bunday iboralarning aksariyatini grammatik jihatdan so'z birikmasi qurilishida bo'lishi aytiladi. Bundan tashqari, gap qurilishidagi iboralar ham mavjud. Iboralar ham xuddi erkin birikmalar singari grammatik jihatdan mukammal tuzilganligi ham ko'rib o'tildi. "O'zbek tili izohli lug'ati"da "bosh" komponentli iboralarning sintaktik bog'lanishi jihatidan asosan bitishuv hamda boshqaruv munosabatlari ko'proq uchrashi ham aniqlandi. Ushbu maqolada biz "bosh" komponentli iboralarning ayrim grammatik jihatlarini ayrim grammatik jihatlarini tahlilga tortdik, xolos. Keyingi ishlarimizda tahlillarni davom ettiramiz.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining frazeologik lug'ati. – T.: Qomuslar yosh tahririyati. – T.: 1992.
2. Hamidov X. Turk frazeologiyasi masalalari. – Toshkent : Bayoz, 2019.
3. Pinxasov U. Hozirgi o'zbek adabiy tili leksikologiyasi. – T.: "Fan", 1968.
4. Rahmatullayev Sh. Nutqimiz ko'rki. – T.: "Fan", 1970.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston nas

